

**KASBIY STANDART**  
**Qattiq va boshqa zararsiz chiqindilarni qayta ishlash**

---

Reyestr raqami:

QR kod

**I. Umumiy ma'lumotlar**

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Maishiy chiqindilar poligoni mudiri", "Chiqindixona mudiri", "Chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha texnik" va "Maishiy chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha uchastka (tuman) ustasi" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

ekologik monitoring – atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini aniqlash, uning ekologik holatini baholash, salbiy jarayonlarning oqibatlarini prognoz qilish bartaraf etish maqsadida atrof tabiiy muhitning biotik va abiotik komponentlarining holatini, ularning ifloslanish va antropogen faoliyatning boshqa zararli ta'sirlari (jarayonlari) tufayli o'zgarishini muntazam kuzatish tizimi;

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini

tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativasi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni;

chiqindilar fraksiyasi — qattiq maishiy yoki boshqa chiqindilarni ularning materiali, tarkibi va xususiyatlari asosida guruhlariga ajratuvchi qismlar.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

## II. Kasbiy standartning pasporti

|   |                                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                  |
|---|------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------|
| 1 | Kasbiy standartning nomi:                                  | Qattiq va boshqa zararsiz chiqindilarni qayta ishlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                  |
| 2 | Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:                        | Qattiq va boshqa zararsiz chiqindilarni atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, inson salomatligini asrash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xavfsiz, samarali hamda ekologik jihatdan maqbul usullar bilan chiqindilarni yig'ish, tashish, qayta ishlash, zararsizlantirish va yo'q qilish                                            |                                  |
| 3 | IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf: | 38.1 Chiqindilarni yig'ish<br>38.11, 38.11.0 Zararsiz chiqindilarni yig'ish<br>38.2 Chiqindilarga ishlov berish<br>38.21 Materiallarni tiklash<br>38.3 Qayta tiklanishsiz chiqindilarni yo'q qilish<br>38.31 Energiyani qayta tiklamasdan chiqindilarni yoqish<br>38.32 Ko'mib tashlash yoki doimiy saqlash<br>38.33 Boshqa chiqindilarni yo'q qilish |                                  |
| 4 | Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:                      | Qattiq maishiy va boshqa zararsiz chiqindilarni xavfsiz va samarali yo'q qilish orqali atrof-muhitni himoya qilish, resurslarni tejash va jamoat salomatligini ta'minlash, shuningdek, chiqindilarni xavfsiz yo'q qilish orqali atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish                                                                            |                                  |
| 5 | Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:        | <b>Kasblar kodi va nomi:</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | <b>TMR dagi malaka darajasi:</b> |
|   |                                                            | 13214004 Maishiy chiqindilar poligoni mudiri                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | 4                                |
|   |                                                            | 13214002 Chiqindixona mudiri                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | 4                                |
|   |                                                            | 13214 Chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha texnik                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | 5                                |
|   |                                                            | 13214005 Maishiy chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha uchastka (tuman) ustasi                                                                                                                                                                                                                                                                           | 6                                |

### III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

| Kasblar |                                                 | Mehnat funksiyalari |                                                                                                                                                       | Mehnat vazifalari |                                                                                                                                                                                  |
|---------|-------------------------------------------------|---------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| T/r     | Kodi va nomi                                    | Kodi                | Nomi                                                                                                                                                  | Kodi              | Nomi                                                                                                                                                                             |
| 1       | 13214004<br>Maishiy chiqindilar poligoni mudiri | A1.4                | Qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish va to'plash joylarini obodonlashtirish faoliyatini boshqarish                                                    | A1.01.4           | Qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi turlari, chiqindi guruhlari va bir xil turdagi chiqindi guruhlari bo'yicha alohida saqlash orqali ularning to'planish hajmlarini hisoblash |
|         |                                                 |                     |                                                                                                                                                       | A1.02.4           | Qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish va to'plash joylarini tashkil etish bo'yicha ishlarni tashkiliy-texnik va texnologik jihatdan ta'minlash                                    |
|         |                                                 | A2.4                | Ekologik va sanitariya-gigiyenik talablarga rioya etilishini ta'minlash                                                                               | A2.01.4           | Chiqindilarni joylashtirishda atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish                                                                             |
|         |                                                 |                     |                                                                                                                                                       | A2.02.4           | Ekologik monitoring ishlarini tashkil qilish                                                                                                                                     |
| 2       | 13214002<br>Chiqindixona mudiri                 | B1.4                | Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va yig'ish joylarini saqlash hamda ulardan foydalanish bo'yicha faoliyatni boshqarish                           | B1.01.4           | Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va yig'ish joylarini saqlash va ulardan foydalanish ishlarini tashkiliy ta'minlash                                                         |
|         |                                                 |                     |                                                                                                                                                       | B1.02.4           | Chiqindilar bilan ishlash jarayoni ishtirokchilarining qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish va to'plash joylarini jihozlash qoidalariga rioya etishini nazorat qilish            |
|         |                                                 | B2.4                | Qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi guruhlari va bir xil turdagi chiqindi guruhlari bo'yicha alohida saqlash orqali to'plash faoliyatini boshqarish | B2.01.4           | Qattiq maishiy chiqindilarni chiqindilar guruhlari va bir turdagi chiqindilar guruhlari bo'yicha yig'ish va to'plash ishlarini tashkiliy-texnik ta'minlash                       |
|         |                                                 |                     |                                                                                                                                                       | B2.02.4           | Qattiq maishiy chiqindilarni alohida yig'ish va to'plash ustidan ishlab chiqarish nazoratini ta'minlash                                                                          |
| 3       | 13214<br>Chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha   | D1.5                | Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, ularni takror                                                                                             | D1.01.5           | Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash va ularni zararsizlantirishga tayyorlash                                                                                              |
|         |                                                 |                     |                                                                                                                                                       | D1.02.5           | Tanlab olingan qattiq maishiy chiqindilar fraksiyalarini vaqtincha                                                                                                               |

|   |                                                                                |      |                                                                                     |         |                                                                                                                        |
|---|--------------------------------------------------------------------------------|------|-------------------------------------------------------------------------------------|---------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   | texnik                                                                         |      | foydalanishga tayyorlash va ajratish                                                |         | saqlash                                                                                                                |
|   |                                                                                |      |                                                                                     | D1.03.5 | Qattiq maishiy chiqindilarni vaqtincha saqlash uchun konteynerlar (idishlar) va inventarlarni foydalanishga tayyorlash |
|   |                                                                                |      |                                                                                     | D1.04.5 | Konteynerlar (idishlar), inventarlar, uskunalarning xavfsiz ishlash rejimini texnik nazorat qilish                     |
|   |                                                                                | D2.5 | Qattiq maishiy chiqindilarga ishlov berish uskunalaridan foydalanish                | D2.01.5 | Qattiq maishiy chiqindilarga ishlov berish uskunalarini ishga tayyorlash                                               |
|   |                                                                                |      |                                                                                     | D2.02.5 | Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashda uskunalarining texnologik ish tartibini saqlash                           |
|   |                                                                                |      |                                                                                     |         |                                                                                                                        |
| 4 | 13214005<br>Maishiy chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha uchastka (tuman) ustasi | E1.6 | Maishiy chiqindilarni yig'ish va tashish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish | E1.01.6 | Chiqindilarni yig'ish jadvalini tuzish va jamoa ishini muvofiqlashtirish                                               |
|   |                                                                                |      |                                                                                     | E1.02.6 | Chiqindilarni saralash va tashishda xavfsizlik choralarini ta'minlash                                                  |
|   |                                                                                | E2.6 | Chiqindilarni qayta ishlash va yo'q qilish jarayonlarini boshqarish                 | E2.01.6 | Chiqindilarni qayta ishlash uchun dastlabki saralashni olib borish                                                     |
|   |                                                                                |      |                                                                                     | E2.02.6 | Chiqindilarni yo'q qilish jarayonida ekologik normalarga rioya qilinishini nazorat qilish                              |
|   |                                                                                | E3.6 | Chiqindilarni boshqarishda texnik resurslar va uskunalar samaradorligini ta'minlash | E3.01.6 | Texnik uskunalar va transport vositalarining texnik holatini nazorat qilish                                            |
|   |                                                                                |      |                                                                                     | E3.02.6 | Texnik resurslardan samarali foydalanishni rejalashtirish                                                              |

#### IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

|                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kasbning nomi:                                                                                                                                                                                                   | Maishiy chiqindilar poligoni mudiri                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                      |
| Mashgʻulot nomining kodi:                                                                                                                                                                                        | 13214                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                      |
| TMR boʻyicha malaka darajasi:                                                                                                                                                                                    | 4                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                      |
| Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar:                                                                                                                                                                       | Malakani baholash tavsiya etiladi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                      |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qoʻyilgan talablar:                                                                                                                                                                 | Chiqindilarni boshqarish, ekologiya, logistika, ishlab chiqarish yoki oʻxshash sohalarda kamida 6 oydan 1 yilgacha ish staji                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                                                                      |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar:                                                                                                                                                      | Tashqi muhitda (issiq, sovuq, chang, hid) ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi;<br>Eʼtiborli va masʼuliyatli holatlarni tez tahlil qila olish, tashabbuskorlik va stressga bardoshlilik;<br>Samarali mehnat munosabatlarini oʻrnatish;<br>Oʻzaro muloqotda xushmuomulali boʻlish;<br>Professional rivojlanish ustida ishlash;<br>Kasb bilan bogʻliq oʻzgarishlarni kuzatish |                                                                                                                                                                                      |
| Taʼlim darajasiga qoʻyilgan talablar:                                                                                                                                                                            | Oʻrta professional taʼlim                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                      |
| Norasmiy va informal taʼlim bilan bogʻliqligi:                                                                                                                                                                   | Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli oʻquv kurslari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                      |
| Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                      |
| Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari:                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                      |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:                                                                                                                                                                               | TMR boʻyicha malaka darajasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | Kasbning nomi                                                                                                                                                                        |
|                                                                                                                                                                                                                  | 4                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Chiqindixona mudiri                                                                                                                                                                  |
| Mehnat funksiyalarining tavsifi                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                      |
| Kodi va nomi                                                                                                                                                                                                     | Mehnat vazifalari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                      |
| A1.4-Qattiq maishiy chiqindilarni yigʻish va toʻplash joylarini obodonlashtirish faoliyatini boshqarish                                                                                                          | A1.01.4-Qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi turlari, chiqindi guruhlari va bir xil turdagi chiqindi guruhlari boʻyicha alohida saqlash orqali ularning toʻplanish hajmlarini hisoblash                                                                                                                                                                                                  | Oʻqitish natijalari                                                                                                                                                                  |
|                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Mehnat harakatlari:                                                                                                                                                                  |
|                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 1. Barcha turdagi qattiq maishiy chiqindilarni yigʻish va toʻplash joylarining texnik xususiyatlarini aniqlash                                                                       |
|                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 2. Turli xil turdagi konteyner maydonchalarini loyihalash uchun texnik topshiriq ishlab chiqish                                                                                      |
|                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 3. Turli turdagi katta hajmli chiqindilarni toʻplash joylari loyihasini ishlab chiqish uchun texnik topshiriq tayyorlash                                                             |
|                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 4. Qattiq maishiy va katta hajmli chiqindilarni yigʻish va toʻplash uchun moʻljallangan maydonchalarning namunaviy loyihalarini talab qilingan texnik xususiyatlarga muvofiq tanlash |
|                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Koʻnikmalar:                                                                                                                                                                         |
|                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Loyihalash uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqish                                                                                                                                |
| Internet tarmogʻidan foydalangan holda talab qilinadigan texnik xususiyatlarga javob beruvchi qattiq maishiy va katta hajmli chiqindilarni toʻplash, yigʻish maydonchalarining namunaviy loyihalarini tayyorlash |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                      |

|                                                                                                                                                       |  |                                                                                                                                                                                                              |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                                                                                                       |  | Yechiladigan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda texnik hujjatlarni o'qib chiqish                                                                                                                |
|                                                                                                                                                       |  | Qattiq maishiy va katta hajmli chiqindilarni yig'ish, to'plash maydonchalarini jihozlash ishlarining natijalarini va sifatini baholash                                                                       |
|                                                                                                                                                       |  | Texnik va hisobot hujjatlarini rasmiylashtirish                                                                                                                                                              |
|                                                                                                                                                       |  | <b>Bilimlar:</b>                                                                                                                                                                                             |
|                                                                                                                                                       |  | Yer va fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar                                                                                                                         |
|                                                                                                                                                       |  | Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi qoidalari                                                                                                                                                    |
|                                                                                                                                                       |  | Zamonaviy aloqa va kommunikatsiya vositalari yordamida axborotni qayta ishlash texnologiyalari                                                                                                               |
|                                                                                                                                                       |  | Aholi punktlarini qattiq maishiy chiqindilardan tozalash bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena talablari                                                                                      |
| A1.02.4-Qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish va to'plash joylarini tashkil etish bo'yicha ishlarni tashkiliy-texnik va texnologik jihatdan ta'minlash |  | <b>Mehnat harakatlari:</b>                                                                                                                                                                                   |
|                                                                                                                                                       |  | 1. Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash ishlarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha xodimlarga chiqindilar turi, chiqindilar guruhlari va bir turdagi chiqindilar guruhlari bo'yicha yo'riqnomalar berish |
|                                                                                                                                                       |  | 2. Qattiq maishiy va katta hajmli chiqindilarni to'plash maydonchalarining texnik holati va kichik nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha xodimlar ishini tashkil qilish                                       |
|                                                                                                                                                       |  | 3. Qattiq maishiy va katta hajmli chiqindilarni yig'ish va to'plash maydonchalarini hamda ularga tutash yer uchastkalarini sanitariya jihatidan toza saqlash bo'yicha xodimlar faoliyatini nazorat qilish    |
|                                                                                                                                                       |  | 4. Konteyner maydonchalarida to'plangan qattiq maishiy chiqindilarni maxsus transportga yuklash ishlarini nazorat qilish                                                                                     |
|                                                                                                                                                       |  | <b>Ko'nikmalar:</b>                                                                                                                                                                                          |
|                                                                                                                                                       |  | Qattiq maishiy chiqindilarning miqdor va morfologik tarkibi haqidagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash                                                                                                 |
|                                                                                                                                                       |  | Chiqindilarni xavflilik sinfi, fraksion va morfologik tarkibi bo'yicha tasniflash                                                                                                                            |
|                                                                                                                                                       |  | Qattiq maishiy va katta hajmli chiqindilarni yig'ish va to'plash maydonchalarining hamda ularga tutash yer uchastkalarining sanitariya holatini baholash                                                     |
|                                                                                                                                                       |  | Xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat tashkiloti xodimlari bilan samarali muloqat o'rnatish                                                                                                               |
|                                                                                                                                                       |  | <b>Bilimlar:</b>                                                                                                                                                                                             |
|                                                                                                                                                       |  | Atrof-muhit muhofazasi va aholi punktlarini qattiq maishiy chiqindilardan tozalash bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena talablari                                                            |
|                                                                                                                                                       |  | Qattiq maishiy va katta hajmli chiqindilarni yig'ish va to'plash uchun mo'ljallangan idishlardan foydalanish tartibi                                                                                         |
|                                                                                                                                                       |  | Qattiq maishiy va katta hajmli chiqindilarni to'plash va                                                                                                                                                     |

|                                                                             |                                                                                                              |                                                                                                                                                                                                                                        |
|-----------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                             |                                                                                                              | yig'ish maydonchalarining texnik hamda estetik holatini vizual va instrumental nazorat qilish usullari                                                                                                                                 |
|                                                                             |                                                                                                              | Qattiq maishiy chiqindilarni maxsus transportga yuklash jarayonida hududiy operator hamda chiqindilarni to'plash maydonchalarining sanitariya holatini ta'minlash uchun mas'ul xo'jalik yurituvchi subyektning javobgarlik vakolatlari |
| Mashg'ulot nomining kodi:                                                                | 13214                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                      |
| TMR bo'yicha malaka darajasi:                                                            | 6                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                      |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:                                               | Malakani baholash tavsiya etiladi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                      |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:                                         | Chiqindilarni boshqarish, ekologiya, logistika, ishlab chiqarish yoki o'xshash sohalarda kamida 2 yillik ish staji                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                                                                      |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:                              | Tashqi muhitda (issiq, sovuq, chang, hid) ishlashga qarshi tibbiy cheklovlar mavjud emasligi;<br>E'tiborli va mas'uliyatli holatlarni tez tahlil qila olish, tashabbuskorlik va stressga bardoshlilik;<br>Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish;<br>O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish;<br>Professional rivojlanish ustida ishlash;<br>Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish |                                                                                                      |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:                                                    | O'rta maxsus professional va oliy ta'lim                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                      |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:                                           | Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                      |
| Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                      |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                      |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:                                                       | <b>TMR bo'yicha malaka darajasi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | <b>Kasbning nomi</b>                                                                                 |
|                                                                                          | 4                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Maishiy chiqindilar poligoni mudiri                                                                  |
| <b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                      |
| <b>Kodi va nomi</b>                                                                      | <b>Mehnat vazifalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                      |
| E1.6-Maishiy chiqindilarni yig'ish va tashish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish | E1.01.6-Chiqindilarni yig'ish jadvalini tuzish va jamoa ishini muvofiqlashtirish                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | <b>O'qitish natijalari</b>                                                                           |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>Mehnat harakatlari:</b>                                                                           |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 1. Chiqindilarni yig'ish jadvalini tuzish                                                            |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 2. Jamoa ishini tashkil qilish va vazifalarni taqsimlash                                             |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 3. Logistika va transport vositalarini boshqarish                                                    |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 4. Jarayonni monitoring qilish va sifat nazoratini amalga oshirish                                   |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>Ko'nikmalar:</b>                                                                                  |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Chiqindilarni yig'ish jarayonini rejalashtirish                                                      |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Jamoa ishini tashkil qilish va xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish                                |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Logistika jarayonlarini optimallashtirish va transport vositalarini boshqarish                       |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Chiqindilarni yig'ish jarayonini monitoring qilish va sifat nazoratini amalga oshirish               |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Raqamli vositalar va dasturlardan foydalanish orqali ma'lumotlarni tahlil qilish va hujjatlashtirish |
|                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Muammolarni hal qilish va favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish                          |

|                        |                                                                                   |                                                                                                                      |
|------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                        |                                                                                   | <b>Bilimlar:</b>                                                                                                     |
|                        |                                                                                   | Chiqindilarni yig'ish jarayonlarini rejalashtirish va logistika boshqaruvi asoslari                                  |
|                        |                                                                                   | Jamoa boshqaruvi va xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish usullari                                                  |
|                        |                                                                                   | Chiqindilarni yig'ishda transport vositalarini boshqarish va marshrutlarni optimallashtirish tamoyillari             |
|                        |                                                                                   | Chiqindilarni boshqarish bo'yicha milliy qonunchilik va xalqaro ekologik standartlar                                 |
|                        |                                                                                   | Ma'lumotlarni raqamli tahlil qilish va hujjatlashtirish bo'yicha zamonaviy usullar                                   |
|                        |                                                                                   | Favqulodda holatlarni boshqarish va muammolarni hal qilish bo'yicha strategik yondashuvlar                           |
|                        | E1.02.6-<br>Chiqindilarni saralash va tashishda xavfsizlik choralarini ta'minlash | <b>Mehnat harakatlari:</b>                                                                                           |
|                        |                                                                                   | 1. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish                                                           |
|                        |                                                                                   | 2. Xavfli chiqindilarni aniqlash va izolyatsiya qilish                                                               |
|                        |                                                                                   | 3. Xavfsizlik uskunalarini tekshirish va ta'minlash                                                                  |
|                        |                                                                                   | 4. Xodimlarga xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalar berish                                                                |
|                        |                                                                                   | <b>Ko'nikmalar:</b>                                                                                                  |
|                        |                                                                                   | Chiqindilarni saralash va tashishda xavfsizlik standartlariga rioya qilinishini tizimli monitoring va nazorat qilish |
|                        |                                                                                   | Xavfli chiqindilarni aniqlash va maxsus izolyatsiya qilish                                                           |
|                        |                                                                                   | Xavfsizlik uskunalarini sinovdan o'tkazish va ishga tayyorligini ta'minlash                                          |
|                        |                                                                                   | Xodimlarni xavfsizlik bo'yicha amaliy o'qitish va ularga ko'rsatmalar berish                                         |
|                        |                                                                                   | Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish va xavfni boshqarish                                                   |
|                        |                                                                                   | Xavfsizlik jarayonlarini raqamli va an'anaviy usullarda hujjatlashtirish va tahlil qilish                            |
|                        |                                                                                   | <b>Bilimlar:</b>                                                                                                     |
|                        |                                                                                   | Chiqindilarni saralash va tashishda xavfsizlik bo'yicha milliy va xalqaro standartlar va qonunchilik talablari       |
|                        |                                                                                   | Xavfli chiqindilarning xususiyatlari va ular bilan ishlashda xavfsizlik choralarini                                  |
|                        |                                                                                   | Xavfsizlik uskunalari va himoya vositalarining texnik talablari va sinov usullari                                    |
|                        |                                                                                   | Xodimlarni xavfsizlik bo'yicha o'qitishning huquqiy asoslari                                                         |
|                        |                                                                                   | Favqulodda holatlarni boshqarish va xavfni minimallashtirish bo'yicha strategik yondashuvlar                         |
|                        |                                                                                   | Jarayonlarni hujjatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot tayyorlash                                     |
|                        | <b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>                                                 | 1. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini ta'minlashda to'liq mas'uliyat                                           |
|                        |                                                                                   | 2. Favqulodda holatlarda tezkor qaror qabul qilishda mustaqillik                                                     |
| E2.6-<br>Chiqindilarni | E2.01.6-<br>Chiqindilarni                                                         | <b>Mehnat harakatlari:</b>                                                                                           |
|                        |                                                                                   | 1. Chiqindilarni fraksiyalari bo'yicha saralash                                                                      |

|                                                       |                                                                                                    |                                                                                                                           |
|-------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| qayta ishlash va yo'q qilish jarayonlarini boshqarish | qayta ishlash uchun dastlabki saralashni olib borish                                               | 2. Xavfli chiqindilarni aniqlash va alohida izolyatsiya qilish                                                            |
|                                                       |                                                                                                    | 3. Saralash jarayonini hujjatlashtirish                                                                                   |
|                                                       |                                                                                                    | <b>Ko'nikmalar:</b>                                                                                                       |
|                                                       |                                                                                                    | Chiqindilarni material turlari bo'yicha aniq va samarali saralash                                                         |
|                                                       |                                                                                                    | Xavfli chiqindilarni vizual va asbobli tekshiruv orqali aniqlash va izolyatsiya qilish                                    |
|                                                       |                                                                                                    | Saralash jarayonlarini raqamli va an'anaviy usullarda hujjatlashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilish                     |
|                                                       |                                                                                                    | Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va ish joyida xavfsiz muhitni ta'minlash                                              |
|                                                       |                                                                                                    | Saralash jarayonining sifatini nazorat qilish va samaradorligini oshirish                                                 |
|                                                       |                                                                                                    | Zamonaviy saralash texnologiyalaridan foydalanish va jarayonlarni optimallashtirish                                       |
|                                                       |                                                                                                    | <b>Bilimlar:</b>                                                                                                          |
|                                                       |                                                                                                    | Qattiq maishiy chiqindilarning tasnifi, xususiyatlari va qayta ishlash talablari                                          |
|                                                       |                                                                                                    | Xavfli chiqindilarni aniqlash, izolyatsiya qilish va xavfsiz boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar                      |
|                                                       |                                                                                                    | Saralash jarayonlarini hujjatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot tayyorlash tartibi                        |
|                                                       |                                                                                                    | Chiqindilarni saralashda mehnat muhofazasi talablari                                                                      |
|                                                       |                                                                                                    | Chiqindilarni qayta ishlash uchun dastlabki saralashning sifat standartlari va nazorat usullari                           |
|                                                       |                                                                                                    | Zamonaviy saralash texnologiyalari va chiqindilarni qayta ishlashning innovatsion usullari                                |
|                                                       | E2.02.6- Chiqindilarni yo'q qilish jarayonida ekologik normalarga rioya qilinishini nazorat qilish | <b>Mehnat harakatlari:</b>                                                                                                |
|                                                       |                                                                                                    | 1. Ekologik normalarga rioya qilinishini monitoring qilish                                                                |
|                                                       |                                                                                                    | 2. Chiqindi oqimlarini o'lchash va tahlil qilish                                                                          |
|                                                       |                                                                                                    | 3. Xavfsizlik va ekologik choralarni amalga oshirish                                                                      |
|                                                       |                                                                                                    | 4. Hujjatlashtirish rasmiylashtirish va hisobotlar tayyorlash                                                             |
|                                                       |                                                                                                    | <b>Ko'nikmalar:</b>                                                                                                       |
|                                                       |                                                                                                    | Chiqindilarni yo'q qilish jarayonlarining ekologik normalarga muvofiq o'tkazilishini tizimli monitoring va nazorat qilish |
|                                                       |                                                                                                    | Chiqindi oqimlarini o'lchash, tahlil qilish va atrof-muhitga ta'sirini baholash                                           |
|                                                       |                                                                                                    | Xodimlarga ekologik xavfsizlik va normalar bo'yicha ko'rsatmalar berish                                                   |
|                                                       |                                                                                                    | Ekologik xavflarni aniqlash va ularni minimallashtirish choralarini joriy etish                                           |
|                                                       |                                                                                                    | Zamonaviy ekologik monitoring texnologiyalaridan foydalanish                                                              |
|                                                       |                                                                                                    | <b>Bilimlar:</b>                                                                                                          |
|                                                       |                                                                                                    | Chiqindilarning biologik va kimyoviy ta'siri                                                                              |
|                                                       |                                                                                                    | Atrof-muhit ko'rsatkichlari xususiyatlari                                                                                 |
|                                                       |                                                                                                    | Xalqaro ekologik monitoring tamoyillari                                                                                   |

|                                                                                              |                                                                                     |                                                                                                     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                                              |                                                                                     | Ekologik qonunchilik asoslari                                                                       |
|                                                                                              |                                                                                     | Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar qoidalari                                              |
|                                                                                              | <b>Mas'uliyat va mustaqillik</b>                                                    | 1. Ekologik xavflarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishda mas'uliyat                           |
| E3.6-<br>Chiqindilarni boshqarishda texnik resurslar va uskunalar samaradorligini ta'minlash | E3.01.6-Texnik uskunalar va transport vositalarining texnik holatini nazorat qilish | <b>Mehnat harakatlari:</b>                                                                          |
|                                                                                              |                                                                                     | 1. Texnik uskunalar va transport vositalarida texnik tekshiruvni o'tkazish                          |
|                                                                                              |                                                                                     | 2. Nosozliklarni aniqlash va ta'mirlashga tayyorgarlik ko'rish                                      |
|                                                                                              |                                                                                     | 3. Texnik xizmat ko'rsatish jadvallarini yuritish va amalga oshirish                                |
|                                                                                              |                                                                                     | 4. Xavfsizlik tizimlarini sinovdan o'tkazish                                                        |
|                                                                                              |                                                                                     | <b>Ko'nikmalar:</b>                                                                                 |
|                                                                                              |                                                                                     | Texnik uskunalar va transport vositalarining holatini kompleks diagnostika qilish va tekshirish     |
|                                                                                              |                                                                                     | Nosozliklarni aniqlash, hujjatlashtirish va ta'mirlashni rejalashtirish                             |
|                                                                                              |                                                                                     | Texnik xizmat ko'rsatish jadvallarini tuzish                                                        |
|                                                                                              |                                                                                     | Xavfsizlik tizimlarini sinovdan o'tkazish va ishlashini ta'minlash                                  |
|                                                                                              |                                                                                     | Texnik hujjatlashtirish va ma'lumotlarni raqamli tahlil qilish                                      |
|                                                                                              |                                                                                     | Uskunalar samaradorligini optimallashtirish va texnik resurslarni boshqarish                        |
|                                                                                              |                                                                                     | <b>Bilimlar:</b>                                                                                    |
|                                                                                              |                                                                                     | Texnik uskunalar va transport vositalarining tuzilishi, ishlash tamoyillari va texnik xususiyatlari |
|                                                                                              |                                                                                     | Texnik holatni nazorat qilish va diagnostika bo'yicha xalqaro standartlar va usullar                |
|                                                                                              |                                                                                     | Nosozliklarni aniqlash, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish tamoyillari                          |
|                                                                                              |                                                                                     | Xavfsizlik tizimlari va mehnat muhofazasi bo'yicha talablar                                         |
|                                                                                              |                                                                                     | Texnik hujjatlashtirish tartibi                                                                     |
|                                                                                              | E3.02.6-Texnik resurslardan samarali foydalanishni rejalashtirish                   | <b>Mehnat harakatlari:</b>                                                                          |
|                                                                                              |                                                                                     | 1. Texnik resurslar ehtiyojini baholash va rejalashtirish                                           |
|                                                                                              |                                                                                     | 2. Resurslardan foydalanishni optimallashtirish                                                     |
|                                                                                              |                                                                                     | 3. Texnik resurslar inventarizatsiyasini yuritish                                                   |
|                                                                                              |                                                                                     | <b>Ko'nikmalar:</b>                                                                                 |
|                                                                                              |                                                                                     | Texnik resurslar ehtiyojini aniq baholash va samarali rejalashtirish                                |
|                                                                                              |                                                                                     | Uskunalar va transport vositalaridan foydalanishni resurs tejankorligi asosida optimallashtirish    |
|                                                                                              |                                                                                     | Texnik resurslarning inventarizatsiyasini raqamli va an'anaviy usullarda yuritish va nazorat qilish |
|                                                                                              |                                                                                     | Texnik resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish                                       |
|                                                                                              |                                                                                     | Raqamli vositalar va dasturlardan foydalanish orqali resurslarni boshqarish va rejalashtirish       |
|                                                                                              |                                                                                     | Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va resurslar samaradorligini oshirish                      |

|                                        |                                   |                                                                                                                                                                       |
|----------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                        |                                   | <b>Bilimlar:</b>                                                                                                                                                      |
|                                        |                                   | Texnik resurslar inventarizatsiyasi va boshqaruvi bo'yicha tizimli yondashuvlar                                                                                       |
|                                        |                                   | Uskunalar va transport vositalarining samaradorligini tahlil qilish va baholash tartibi                                                                               |
|                                        |                                   | Raqamli vositalar va dasturlarni resurslarni boshqarishda asoslari                                                                                                    |
|                                        |                                   | Innovatsion texnologiyalar va axborot resurslari asoslari                                                                                                             |
|                                        |                                   | Mehnat muhofazasi talablari, yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar qoidalari                                                                                   |
|                                        | <b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b> | 1. Samaradorlikni ta'minlashda to'liq mas'uliyat va javobgarlik                                                                                                       |
| <b>Texnik va/yoki texnologik talab</b> |                                   | Chiqindilarni qayta ishlash uskunalarining (maydalagichlar, separatorlar, presslar) va transport vositalaridan foydalanish va ularning ishlash parametrlarini sozlash |

**V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari**  
**5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot**

| № | Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot                                                                                                                     |                                  |
|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------|
|   | Ish joyi va lavozimi                                                                                                                                         | Familiyasi, ismi, otasining ismi |
| 1 | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i                     | B.Kazakbayeva                    |
| 2 | Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi                                                                  | I.G'ulomov                       |
| 3 | O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Mustaqil maslahatchi                                         | N.Almedov                        |
| 4 | Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) Akademik hamkorlik va dasturlarni rivojlantirish bo'limi menejeri | I. Mashrabaliyev                 |
| 5 | "Ekomodern" MCHJ direktori                                                                                                                                   | S.Axmedova                       |